

SIYOSIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING STRATEGIK ISTIQBOLLARI

Jizzax davlat pedagogika instituti

“Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi” kafedrası
stajyor-o’qituvchisi M.Aliyev

Annotatsiya: mazkur maqolada siyosiy xavfsizlik tushunchasi, davlat, jamiyat boshqaruvidagi ahamiyati hamda uni ta’minlash usul va vositalari haqida so’z boradi.

Annotation: This article discusses the concept of political security, its role in the governance of the state and society, as well as the methods and tools to ensure it.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие политической безопасности, ее роль в управлении государством и обществом, а также методы и инструменты для ее обеспечения.

Kalit so’zlar: siyosiy xavfsizlik, tahdidlar, siyosiy institutlar, strategik tadqiqotlar, milliy manfaatlari

Keywords: political security, threats, political institutions, strategic research, national interests

Ключевые слова: политическая безопасность, угрозы, политические институты, стратегические исследования, национальные интересы.

Siyosiy xavfsizlik - har qanday siyosiy bosim, tahdidlarga qarshi himoya tizimi. U inson huquqlari bilan ta’minlanganligi, himoyalanganligi bilan xarakterlanadi. Har bir davlat ichki va tashqi siyosiy barqarorlikni ta’minlashdan hamda xalqaro munosabatlarda to’laqonli ishtirok etishdan manfaatdor. Shu nuqtai nazardan siyosiy xavfsizlikning mohiyati ichki va tashqi siyosatni yuritish imkoniyati bilan belgilanadi. Siyosiy xavfsizlikning maqsadi bevosita davlat rejimiga bog’liq. Shu orqali mamlakatda fuqarolarning huquq va erkinliklari,

demokratik qadriyatlar, me'zonlar, siyosiy institutlar faoliyati va ularning manfaatlar muvozanati davlat instituti foydasiga hal etildi.

Quyida biz siyosiy xavfsizlikning mezonlari bilan tanishamiz:

- davlatning siyosiy tizimi;
- xalqaro qonunlar, konvensiya umuman olganda, me'yoriy hujjatlarni ratifikatsiya, denostatsiya, implementatsiya qilish;
- davlatning milliy manfaatlarini ko'zlab xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lib kirishi;
- hokimiyatda kurash uchun tashkil etilgan siyosiy partiyalar;
- OAV ning mustaqilligi;
- fuqarolik jamiyati institutlari;
- jamiyatning siyosiy savodxonligi;

Siyosiy xavfsizlikning obyekti bu - shaxs, jamiyat, davlat siyosiy munosabatlar tizimidagi hayotiy muhim manfaatlarini tushuniladi.

Siyosiy xavfsizlikning mexanizmi o'zida qator tarkibiy qismlar va ularning maqsadli munosabatlarini qamrab oladi:

- siyosiy xavfsizlik nuqtai nazari asosida himoya etishga ehtiyoji bor obyektlar;
- siyosiy xavfsizlikni ta'minlashga oid ilmiy qarashlar, tamoyillar va konsepsiyalar;
- siyosiy xavfsizlikni ta'minlashga oid qonunlar majmuasi;
- siyosiy xavfsizlik sohasini ta'minlash uchun mas'ul sub'ektlar(ular faoliyatining yuqori kasbiy darajasi);
- siyosiy xavfsizlikni ta'minlash uchun turli darajalarda qo'llaniladigan usul va vositalar;
- siyosiy xavfsizlikni ta'minlangan holatini baholovchi mezonlar;
- siyosiy xavfsizlikni ta'minlash uchun institutsional tarzda yaratilgan amaliy chora-tadbirlarning samaradorligi.¹


Hozirda kun tartibidagi dolzarb masala shuki, ikki qarama-qarshi mafkuraviy tizimidan xolos bo'lgan, ammo globallashtirish jarayoniga tortilayotgan

¹ R.Samarov "Xavfsizlik metodologik asoslari" T-Akademiya-2010, B-122

davlatlarda siyosiy xavfsizlik tizimi qanday yo‘lga qo‘yilayapti? Mavjud siyosiy tizimni optimal saqlab turish uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilayapti? Umuman siyosiy xavfsizlikni davlat, mintaqa doirasidagi axvoli qanaqa? Mazkur savollarga nazariy, ilmiy jihatdan yondashib chuqur tahlilni amalga oshirish zarur.

E’tiborimizni dastavval quyidagi statistikaga qaratamiz: Ma’lumki, jahon miqyosida davlatlarning YAIM, pul va inflatsiya, ishsizlik, xalqaro investitsiya, korrupsiya, soliq, mamlakatlarning risk indikatorlari va boshqa jihatlariga qarab tahliliy ko‘rsatkichlarni ko‘rsatuvchi **The Global Economy** saytida keltirilishicha: Siyosiy barqarorlik indeksi bo‘yicha davlatlar reytingi(ko‘rsatkich -2.5 (kuchsiz), 2.5(kuchli) keltirib o‘tilgan: Xalqaro miqyosda: top 100 likda: Monako (1.65) va eng quyida Yaman (-2.96), Osiyo mintaqasida esa Singapur (1.59) yetakchilikda, O‘zbekiston davlati esa (-0.28). Ma’lumotlar 2017-yil tahlili bo‘yicha.²

Bizda aniq siyosiy xavfsizlikga oid tassavvurni hosil qilish uchun hozirgi kunda siyosiy xavfsizlikning tayanch nuqtalarini keltirib o‘tamiz:



Davlat manfaatlari yuzasidan siyosiy xavfsizlikni ta'minlash va bu boradagi ishlarning pirovard maqsadi haqida so‘z yuritar ekanmiz, bunda birlamchi, davlat hokimiyati tarmoqlarining samarali faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, mustaqilligi, tiyib turish prinsipi, qonuniylik, adolatlilik, puxta o‘ylangan siyosatni izchil olib borishda kuzatiladi. Jamiyatda siyosiy plyuralizm tamoyillariga asoslanib sog‘lom raqobat qila oladigan va qonuniy muxolifatdagi partiyalarning mavjudligi, ularning hokimiyatni egallashdagi tashabbuslari, hokimiyat qo‘lga kiritilgandan so‘ng elektorat, jamiyat, davlat manfaatlarini ko‘zlab siyosiy qonun hujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha hukumat va davlat oldiga ko‘plab takliflarni kiritishi, davlatning

² https://m.theglobaleconomy.com/rankings/wb_political_stability/#Uzbekistan

ichki va tashqi siyosiy obrazini, uning siyosatini, siyosatidagi ustuvorliklarini dunyoga chiqara oladigan norasmiy to'rtinchi hokimiyatning vazifasi siyosiy xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarni ko'rsatib bera olishdir.

Davlatning barcha tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy choralarni ko'rishiga qaramasdan, siyosiy xavfsizlikni ta'minlashda davlatning o'rniga lobbistlar yokida parasiyosiy kuchlarning ta'siri to'g'risidagi tendensiya ham kuzatilayapti. Buni biz mustaqillikni qo'lga kiritayotgan hamda demokratik qadriyatlarni endigina o'zlashtirayotgan davlatlarda kuzatamiz.

Ijtimoiy maqomiga ko'ra, ularning muxolif siyosiy-ijtimoiy harakatlardan tortib to kriminal guruhlargacha sotsial-siyosiy mo'ljal va rejalari, nasl-nasabsiz, boz ustiga vaqtincha umumiylik kasb etuvchi kimsalardan iborat ekanligini ko'rsatish lozim.³

Shuningdek, xavf va tahdidlar nuqtai-nazaridan ham siyosiy xavfsizlik sohasiga oid o'ziga xos ichki va tashqi xavflar tizimi mavjud. Stokgolm siyosiy va mintaqaviy tadqiqotlar instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlaridan birida ko'rilayotgan mavzuga oid qator omillarga to'xtalib o'tadi:

- etnik, milliy, diniy va til guruhlarining, yangi muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega demokratik institutlar va o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalarining mavjud emasligi va bu bilan bog'liq holda millatlararo va diniy mojarolarning qayta jonlanishi. Masalan, separastik harakatlar Yevropaning ayrim davlatlarida mavjud, biroq siyosiy plyuralizm va demokratik institutlar bo'lmagan yoki rivojlanishning boshlang'ich davrida bo'lgan mamlakatlarda ushbu muammo alohida ahamiyat kasb etadi;

- totalitar, bir partiyaviy tizimdan qonun ustuvorligi ta'minlangan pyuralistik demokratiyaga o'tish bilan bog'liq siyosiy beqarorlik. Masalan, nazorat va qonuniy cheklovlarga bo'ysunmaydigan guruhlar tomonidan hokimiyatning suiite'mol qilinishi, fuqaroviy va demokratik nazoratning yo'qligi, politsiya va qurolli kuchlar faoliyatining cheklanmaganligi;

- markazlashtirilgan rejali xo'jalik bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish vaqtida yuzaga keluvchi ijtimoiy keskinlik. Masalan, ommaviy ishsizlik,

³ T.Jo'rayev "Milliy davlatchilik: Xavfsizlik va barqarorlik" T-Akademiya 2007, B-114

ijtimoiy ta'minot tizimining kuchsizlanishi va mintaqalarning notekis rivojlanishi oz bo'lsada ijtimoiy farovoronlik, tibbiy yordam va ijtimoiy himoyaning boshqa shakllari davlat hisobidan ta'minlangan avvalgi avtoritar tuzumning qo'msalishiga olib kelishi mumkin va boshqalar.⁴

Yuqorida ko'rib o'tilgan xavf va tahdidlar ma'lum bir davlat koordinatsiyasida kuzatiladi. Mintaqa doirasida siyosiy xavfsizlikni ta'minlash, zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish bu endi bir davlatning ishigina emas, mintaqa davlatlarining ham mas'uliyatidir. Negaki mintaqadagi bir davlatning siyosiy xavfsizligiga putur yetadigan bo'lsa, qolgan davlatlarning siyosiy xavfsizligiga ham soya tushishi aniqdir. Shu munosabat bilan mintaqadagi davlatlarning siyosiy xavfsizligiga ehtimoliy tahdid qiluvchi omillariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: globallashuv jarayonida davlatlarning dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini belgilash; hududiy yaxlitligi va suverenitetini saqlash muammolari; hozirgi zamonda kechayotgan dunyodagi murakkab geosiyosiy va geoiqtisodiy o'zgarishlar; dunyodagi yetakchi kuchlarning kurashi va ularning davlatlarga ta'siri; mintaqada dunyodagi yetakchi kuchlarning manfaatlar to'qnashuvi, siyosiy o'yinlarga tortilishi;

Ehtimoliy xavf va tahdidlarning ta'siri va natijasi shuki, ma'lum bir davlat yoki mintaqaning mustaqil siyosat tizginini o'zga kuchlar qo'liga tutqazibgina qolmay, dunyoning siyosiy tartibotiga ham jiddiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi.

Demakki, xavfning har qanday turini (siyosiy, harbiy, iqtisodiy, information, ijtimoiy) oldini olishga qaratilgan ma'lum bir ishlar amalga oshirilsa ehtimoliy xavflarni bartaraf etish mumkin.

Siyosiy makonda siyosiy xavfsizlikni saqlash orqali siyosiy barqarorlikka erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadaga muvofiq:

- barqarorlik va xavfsizlik yo'lida paydo bo'layotgan tahdidlarga munosib javob bera olish va uning tabiatini atroflicha tushunib olish lozim;
- (strategic studies) startegik tadqiqotlarni muntazam ravishda olib borish;

⁴ I. Boboqulov "Xavfsizlik asoslari" (o'quv qo'llanma) T- 2011, B-60-61

- globallashuv jarayonida milliy manfaatlarni hisobga olib, jahonning boy ilmiy-ma'naviy tajribasidan foydalanib xavfsizlik tadqiqotlarida (security studies) yangidan-yangi nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish;

- to'g'ri, hozirda bir davlat yakka holda siyosiy xavfsizlikni ta'minlashi mushkul, shuning uchun davlatlararo integratsiyani kuchaytirish;

- mintaqadagi qo'shni davlatlar bilan mafaatli kelishuvlar, bitimlar, siyosiy tuzilmalarni barpo etish;

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik bu serqirra, had-hudud bilmasdir. XXI asrda davlatlar ko 'plab an'anaviy, noan'anviy tahdidlar qurshovida yashamoqda. Endigina mustaqillikka erishgan davlatlar oldidagi dalzarb masala va hattoki rivojlangan davlatlarning strategik rivojlanish yo'lidagi muammo bu siyosiy xavfsizlikni mustahkamlab olishdir. Bu borada davlatlarning o'z imkoniyatdan kelib chiqib xavfsizlik tadqiqotlari, xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari, xavfsizlikni yangi tendensiyalarini ishlab chiqarishni kun tartibiga qo'yayapti. Shunday raqobat ichida milliy o'zligini, milliy suverenitetni va albatta, siyosiy xavfsizligini mustahkamlab, o'zining afzalliklarini namoyon qilib maydonga chiqa olsa, uning ta'sir doirasi ham shunchalik kuchli bo'ladi.